

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 587 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI.....	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQUISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQUVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQUVATIDAN JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Putatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish Texnologiyasi	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIBOYO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUHARODNYY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTIYATSIYA	471
Usmanova Aziza Bahodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI	500
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O'RNI	506
Yunusov Foziljon G'ulomqodirovich	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH	511
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o'g'li	
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI	517
Tashmuxeamedov Dilmurod Mirabzalovich	



SOLIQ SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI	522
Jurayev Xusan Atamuratovich	
IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS	528
Sobirov A. Abdurasul	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI	533
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
TECHNOLOGY-DRIVEN VISITOR MANAGEMENT SYSTEMS FOR ENHANCING MUSEUM EXPERIENCE AND PERFORMANCE	539
Ibroximova Aziza Abbasovna	
XALQARO MOLİYAVIY INSTITUTLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	545
Kurbonbekova Moxichexra Turobjonovna	
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA "AQLLI KON" KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH TAJRIBASI	551
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA STRATEGIK TA'SIRI	556
Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING TASHKILIY VA IQTISODIY XUSUSIYATLARI	562
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ СТРЕЛКОВОГО СПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	568
Юсупов И.	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	573
Тарават Абдул-Салам	
MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	581
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	



MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

Abduxamidov Sarvar Adxamovich

SamISI, "Turizm" kafedrası mudiri,

i.f.f.d., professor,

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqotchisi

E-mail: sarvarabduxamidov4@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0530-0021

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy aholining ishtirokini ta'minlash tizimlarini takomillashtirish orqali turistik mintaqalarni rivojlantirish zarurati ilmiy asoslangan. Tadqiqot jarayonida so'rovnomalar usulidan foydalanilib, olingan natijalar asosida ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, turistik mintaqalarda aholining faol ishtirokini ta'minlovchi tizimlarni takomillashtirishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurati nuqtai nazaridan amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: turizm, mintaqaviy turizm, aholi bandligi, raqamli transformatsiya, xalqaro mehnat bozori, ijtimoiy faollik, madaniy meros, jamoatchilik hamkorligi, kadrlar tayyorlash.

Abstract. This article substantiates the necessity of developing tourist regions through improving systems that ensure the participation of the local population. A survey method was applied during the research, and scientific and practical conclusions were drawn based on the obtained results. In addition, practical recommendations were developed from the perspective of applying a comprehensive approach to improving systems that promote public participation in tourist regions.

Keywords: tourism, regional tourism, employment, digital transformation, international labor market, social activity, cultural heritage, community cooperation, human resource development.

Аннотация. В статье научно обоснована необходимость развития туристических регионов посредством совершенствования систем обеспечения участия местного населения. В ходе исследования использован метод социологического опроса, на основе результатов которого сформулированы научно-практические выводы. Кроме того, с позиции необходимости применения комплексного подхода к совершенствованию систем, обеспечивающих участие населения в туристических регионах, разработаны практические предложения.

Ключевые слова: туризм, региональный туризм, занятость населения, цифровая трансформация, международный рынок труда, социальная активность, культурное наследие, общественное сотрудничество, подготовка кадров.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Worldometers.info sayti ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil holatiga dunyo aholisi soni 8,2 milliard nafardan oshgan [11] bo'lib, bu holat insoniyat oldida yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar bilan bir qatorda, yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shunday sharoitda turizm sohasi xalqaro mehnat bozorining muhim tarkibiy qismiga aylanib, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha 200 milliondan ziyod aholi turizm bilan bog'liq sohalarda band hisoblanadi [12].

Mazkur ko'rsatkichlar turizmning nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi, balki jamiyatda ijtimoiy faollikni oshiruvchi hamda madaniy muloqotni kuchaytiruvchi muhim tarmoq ekanligini yaqqol namoyon etadi. Turizm sohasining keng qamrovli rivojlanishi bevosita mahalliy aholining faol ishtirokiga bog'liq bo'lib, ularning xizmat ko'rsatish jarayonlaridagi ishtiroki, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi hamda madaniy merosni saqlashdagi hissasi hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasidagi mehnat bozori jahon iqtisodiyotining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga hissa qo'shadi, balki aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni ko'paytirish hamda hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim drayveriga aylanmoqda.

E. Golisheva tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda turizmning mehnat bozoriga ta'siri, xususan, bevosita va bilvosita bandlik ko'rsatkichlarini aniqlash jarayonida qator muammolar mavjudligi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham turizm sohasidagi bandlikni hisobga olish tizimi to'liq shakllanmagan bo'lib, ayniqsa mahalliy aholining faoliyati (individual tadbirkorlar, hunarmandlar, oilaviy mehmon uylari va h.k.) yetarli darajada qamrab olinmagan [1].

L.K. Ayushiyevaning tadqiqotlarida aholining turistik sohadagi bandligi masalasi ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan tahlil qilinib, muallif turizmni yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim platforma sifatida baholaydi [2].

D. Ishanxodjayeva, N. Abduraxmanova va Sh. Raxmonovlarning ilmiy izlanishlarida esa O'zbekistonda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning yetakchi drayverlaridan biri sifatida talqin etilgan. Mualliflar turizmning aholi bandligi, daromadlar o'sishi hamda hududiy iqtisodiy faollikka ta'sirini chuqur va kompleks tarzda tahlil qilganlar [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-ijtimoiy va geografik tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil usullari, shuningdek, empirik tadqiqot usuli sifatida so'rovnoma (anketa) usuli qo'llanildi. So'rovnoma orqali mahalliy aholining turizm sohasiga bo'lgan munosabati, ishtirok darajasi hamda ularning hududiy turizmni rivojlantirishdagi roli to'g'risidagi fikrlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston sharoitida turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish, ayniqsa hududiy darajada mahalliy aholining ishtirokini ta'minlash tizimlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki aholining iqtisodiy faolligini oshirish, ularni jamoaviy rivojlanish jarayonlariga jalb etish hamda hududlarning brend qiymatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda esa mahalliy aholining turizm sohasidagi ishtiroki ko'p hollarda cheklangan bo'lib, bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi, infratuzilma hamda moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi turizmning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, mahalliy aholini turizm jarayonlariga jalb etishning samarali mexanizmlarini yaratish, davlat, xususiy sektor va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali turistik mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi modelini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot mahalliy aholining turizm sohasidagi ishtirokini ta'minlash tizimlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, amaliyotdagi samarali tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali hududiy turistik rivojlanishning barqaror mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Turistik mintaqalarni rivojlantirishda mahalliy aholining ishtiroki" mavzusida ijtimoiy so'rovnoma ishlab chiqildi va unda 162 nafar respondent ishtiroki ta'minlandi. Turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi jamiyat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [4]. Mazkur so'rovnoma natijalari mahalliy aholining turizmga bo'lgan munosabati, mavjud muammolar hamda rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 60 % ini erkaklar, 40 % ini esa ayollar tashkil etadi. Yosh tarkibi bo'yicha eng yirik guruh 26–35 yosh oralig'idagi respondentlar bo'lib, ular jami ishtirokchilarning 30 % ini tashkil etadi. Bu holat turizm sohasidagi imkoniyatlardan foydalanish hamda yangi tashabbuslarni ilgari surishga qiziqish bildiruvchi yoshlar guruhi mavjudligini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. So'rovnomada qatnashgan respondentlarning yosh tarkibi

Ma'lumot darajasi bo'yicha respondentlarning 40 % i o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu holat kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish imkoniyatlariga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini anglatadi. Turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish maqsadida maxsus treninglar, malaka oshirish dasturlari hamda amaliyotga yo'naltirilgan o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur natijalar turizm sohasida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Davlat va xususiy sektor hamkorligida turizmga ixtisoslashgan ta'lim dasturlarini joriy etish hamda amaliyotga asoslangan o'quv kurslarini tashkil etish samarali yechimlardan biri bo'lishi mumkin.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 20 % i turizm sohasini yaxshi tushunishini, 40 % i esa ushbu soha bo'yicha o'rtacha darajadagi bilimga ega ekanligini bildirgan (2-rasm). Shu bilan birga, respondentlarning 20 % i hech qachon sayohat qilmaganini ma'lum qilgan bo'lib, bu holat mahalliy aholining turizm faoliyatiga jalb etilishiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. Respondentlarning turizm bo'yicha tushunchaga egalik darajasi

Bu natijalardan kelib chiqib, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- aholi o'rtasida turizm madaniyatini oshirish, turizmning iqtisodiy va ijtimoiy foydalari haqida targ'ibot ishlarini kuchaytirish, shuningdek, mahalliy aholi uchun ekskursiyalar va madaniy tadbirlar tashkil etish;
- turizm bo'yicha ta'lim va treninglar o'tkazish, mahalliy tadbirkorlar, gidlar hamda turizm sohasiga qiziquvchilar uchun o'quv kurslari va mahorat darslarini tashkil etish;
- sayohat qilishni qo'llab-quvvatlash, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mahalliy aholi uchun maxsus chegirmalar va imtiyozli sayohat dasturlarini joriy etish.

Agar mahalliy aholi turizm imkoniyatlaridan xabardor bo'lsa va ushbu jarayonlarda faol ishtirok etsa, bu holat nafaqat sohaning rivojlanishiga, balki hududning umumiy iqtisodiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 15 % i turizm sohasida daromad olish imkoniyatini juda yuqori deb baholagan bo'lsa, 40 % i ushbu imkoniyatni o'rtacha darajada deb hisoblagan. Shu bilan birga, respondentlarning 10 % i mazkur sohada daromad olish imkoniyati mavjud emasligini ta'kidlagan.

Ushbu holat turizm tadbirkorlik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish hamda aholini ushbu sohada faol ishtirok etishga rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:



- turizmda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahalliy tadbirkorlar uchun grantlar, imtiyozli kreditlar va biznes yuritishga oid maslahat dasturlarini joriy etish;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, jumladan, mehmon uylari, milliy hunarmandchilik, oziq-ovqat xizmatlari hamda sayyohlikka yo'naltirilgan startaplarni qo'llab-quvvatlash;
- biznes bo'yicha o'quv kurslari va treninglar tashkil etish, aholiga turizm orqali daromad topish imkoniyatlari haqida ma'lumot berish va ularni turistik xizmatlar ko'rsatishga o'rgatish;
- turistik marketingni kuchaytirish, mahalliy tadbirkorlarning mahsulot va xizmatlarini raqamli platformalarda kengroq targ'ib qilish, ularga reklama va savdo yo'nalishida ko'maklashish.

Aholi turizm sektoridagi tadbirkorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalana olsa, bu nafaqat shaxsiy daromadlarning oshishiga, balki umumiy iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Turizm sohasini rivojlantirish jarayonida aholi fikrini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 10 % i mahalliy hokimiyat yoki turizm tashkilotlariga takliflar bildirgan bo'lsa, 20 % i jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etgan. Shu bilan birga, respondentlarning 40 % i kelgusida taklif bildirish niyatida ekanligini qayd etgan.

Bu holat aholi fikrini yig'ish va tahlil qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Turizm sohasini samarali rivojlantirish maqsadida jamoatchilik muhokamalari, onlayn so'rovlar hamda ochiq muloqot platformalarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali aholi takliflarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Aholi ishtirokining oshirilishi turizm sohasiga oid qarorlarning jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilinishiga imkon yaratadi, bu esa sohaning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turizm sohasini rivojlantirishda bir qator ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 30 % i infratuzilmani yaxshilash zarurligini ta'kidlagan. Bu holat yo'llar, mehmonxona va transport xizmatlarini takomillashtirish, shuningdek, turistik ob'ektlarni modernizatsiya qilish ehtiyojini ko'rsatadi.

Shuningdek, respondentlarning 25 % i yangi turistik marshrutlarni tashkil etishni taklif qilgan. Bu esa mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun yangi manzillarni ochish hamda yanada boy va qiziqarli tajribalarni shakllantirish imkonini beradi. Ekologik, tarixiy va gastronomik turizm yo'nalishlarini kengaytirish sohaning jozibadorligini oshiradi.

Bundan tashqari, respondentlarning 20 % i turistik marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish zarurligini qo'llab-quvvatlagan. Turizm salohiyatini targ'ib qilish, raqamli marketing vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama strategiyalarini rivojlantirish xalqaro sayyohlarni jalb etishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy brendni shakllantirish va turizm festivallarini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy aholining turizm jarayonlariga jalb etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki madaniy merosning saqlanishiga hamda sayyohlar uchun haqiqiy mahalliy muhit yaratilishiga xizmat qiladi [5]. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 40 % i mahalliy aholi ishtirokining muhimligini alohida ta'kidlagan. Bu esa mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va sayyohlar uchun yanada qiziqarli tajriba yaratish imkonini beradi. Shuningdek, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda daromadlarning oshishiga hissa qo'shadi.

Turizmni rivojlantirishda infratuzilmani yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 40 % i infratuzilmani takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. Xususan, transport, mehmonxona xizmatlari, yo'llar va turistik ob'ektlar bilan bog'liq infratuzilmani yaxshilash talab etiladi. Bu esa turistlarni jalb qilish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida bilim va malaka oshirish dasturlariga alohida e'tibor qaratish zarur. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 50 % i turizmga oid treninglarda ishtirok etishga tayyor ekanligini bildirgan. Bu holat soha mutaxassslarining malakasini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va sayyohlar uchun qulay muhit yaratish uchun katta imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois, davlat va xususiy sektor hamkorligida treninglar, malaka oshirish kurslari hamda stajirovkalarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, mehmonxona xizmatlari, gidlik faoliyati, marketing va sayyohlik menejmenti yo'nalishlarida xalqaro tajribaga asoslangan o'quv dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat mahalliy mutaxassslarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi, balki xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm sohasi hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning muhim drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mahalliy aholining faol ishtirokisiz turistik mintaqalarning barqaror rivojlanishiga erishish



mumkin emas. Chunki mahalliy jamoalar turizmning asosiy resursi hisoblangan mehmondo'stlik, madaniy meros va an'anaviy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi sharoitda mahalliy aholini turizm jarayonlariga jalb etishdagi asosiy muammolar institutsional mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmagani, axborot-ma'rifiy ishlarning kamligi, malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi, shuningdek, mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tizimining zaifligi bilan izohlanadi. Shu sababli, turistik mintaqalarda aholining ishtirokini ta'minlovchi tizimlarni takomillashtirishda kompleks yondashuvni qo'llash talab etiladi. Xususan:

— mahalliy aholining turizm sohasiga jalb etilishini rag'batlantiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarni yaratish zarur. Bu, jumladan, kichik turizm bizneslarini qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratish, mahalliy mahsulotlar hamda hunarmandchilik faoliyatini turizm bilan integratsiyalashni o'z ichiga oladi;

— kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida o'quv dasturlari, treninglar hamda mahalliy va hududlararo tajriba almashish platformalarini yo'lga qo'yish lozim;

— mahalliy jamoalar bilan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali "jamoaga asoslangan turizm" modelini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur yondashuv turistik mintaqalarda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi, aholida o'z hududi rivojiga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Shu tariqa, mahalliy aholining faol ishtirokiga tayangan turizmni rivojlantirish hududlarning barqaror iqtisodiy o'sishiga, milliy brendning mustahkamlanishiga hamda mamlakatning xalqaro turistik raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Голышева Е. Совершенствование методологии занятости в сфере туризма в Республике Узбекистан. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, № 3, 2024 г.
2. Аюшиева Л. К. Занятость населения в туристической отрасли. Вестник Бурятского государственного университета, № 2, 2015 г.
3. Ишанходжаева Д., Абдурахманова Н., Рахмонов Ш. Занятость населения в туристической отрасли Республики Узбекистан. <https://cyberleninka.ru/article/n/zanyatost-naseleniya-v-turisticheskoy-otrasli-respubliki-uzbekistan>
4. Boltabaev, M. R., Tukhliov, I. S., Safarov, B. S., & Abdurakhimov, S. A. (2018). Turizm: nazariya va amaliyot. Tashkent: Fan va texnologiya, 6.
5. Tukhliov, I. S., & Abdukhmidov, S. A. (2021). Strategic planning processes in regional tourism in the digital economy. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(5), 22–27.
6. Suyunovich, T. I., & Adhamovich, A. S. (2019). Directions of activation of innovative activities of higher education institutions in forming innovative economy. VVK, 75.81 T 88, 235.
7. Abdukhmidov, S., Makhmudova, A., & Mukhamadiev, A. (2022). Development of tourist routes and the formation of attractive tourist products. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(3), 129–132.
8. Abduhamidov, A. S., & Dustova, M. K. (2022). Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Builders of the Future, 2(2), 282–287.
9. Sadibekova, B., Makhmudova, A., Abdukhmidov, S., & Mukhamadiev, A. (2021). The main forms of pilgrimage tourism. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(2), 84–88.
10. Amriddinova, R. S., & Abdukhmidov, S. A. (2021). Factors for determining the specialization of the regions of the Republic of Uzbekistan in tourism and the assessment of tourist attractiveness. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(10), 51–55.
11. <https://www.worldometers.info/ru>
12. https://uza.uz/ru/posts/znachimost-uvelicheniya-potoka-turistov-sovershenstvovaniya-infrastruktury-i-povysheniya-potenciala-kadrov-vsegda-aktualna_694944

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100